



## YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA KORXONALARNING EKOLOGIK INNOVATSION LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

## IMPROVING INVESTMENT MECHANISMS FOR FINANCING ENVIRONMENTAL INNOVATION PROJECTS OF ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

<sup>1</sup>Gafurova Umida  
Fatixovna

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston  
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari»  
ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi

### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida korxonalarining ekologik innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, ekologik innovatsion loyihalarining xususiyatlari hamda ularni moliyalashtirishning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va milliy tajriba asosida investitsiya mexanizmlarining samaradorligi baholangan. Natijada ekologik loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish, davlat qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish zarurligi asoslab berilgan.

*Eng.* - This article examines the improvement of investment mechanisms for financing environmental innovation projects of enterprises in the context of the transition to a green economy. The study analyzes the theoretical foundations of the green economy, the characteristics of environmental innovation projects, and modern financing methods. In addition, based on international and national experience, the effectiveness of investment mechanisms is evaluated. The results justify the need to diversify financing sources, strengthen government support, and stimulate innovative activities.

### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiya, investitsiya mexanizmlari, moliyalashtirish usullari, yashil investitsiyalar, innovatsion rivojlanish, barqaror iqtisodiy o'sish.*

❖ *green economy, ecological innovation, investment mechanisms, financing methods, green investments, innovative development, sustainable economic growth.*

### Kirish.

Hozirgi kunda global miqyosda ekologik muammolarning kuchayishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [1]. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda [2]. Ushbu

model doirasida iqtisodiy o'sish atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan uyg'unlashtiriladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida korxonalarining ekologik innovatsion loyihalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday loyihalar energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi

energiya manbalaridan foydalanishga qaratilgan bo'ladi. Biroq ushbu loyihalarni amalga oshirish yuqori boshlang'ich investitsiyalarni talab qiladi, bu esa ularni moliyalashtirishni murakkablashtiradi.

Shu sababli ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda zamonaviy investitsiya mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, yashil investitsiyalar, innovatsion fondlar, venchur kapital va xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston sharoitida ham yashil iqtisodiyotga o'tish doirasida investitsiya siyosatini takomillashtirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Xorijiy iqtisodiy korxonalarining ekologik innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalasi keng tadqiq etilgan.

E. Barbier yashil iqtisodiyot konsepsiyasini iqtisodiy o'sish, investitsiya va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi tizim sifatida izohlaydi [2]. Unga ko'ra, yashil investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlab, resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Fikrimizcha, ushbu yondashuv shuni ko'rsatadiki, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish faqat qisqa muddatli iqtisodiy foyda bilan emas, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ham baholanishi lozim. Bu esa investitsiya siyosatini strategik darajada shakllantirish zarurligini anglatadi.

N. Stern iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilib, ekologik investitsiyalarni kechiktirish kelajakda ancha katta iqtisodiy zararlarni keltirib chiqarishini asoslaydi [1]. Fikrimizcha, bu holat ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni ortga surish iqtisodiyot uchun yanada katta xarajatlarga olib kelishini bildiradi. Shu sababli investitsiyalarni aynan hozirgi bosqichda faol

jalb etish iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi.

Jahon banki tadqiqotlarida yashil investitsiyalar iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida baholanadi [3]. Unda yashil moliyalashtirish instrumentlari orqali korxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish mumkinligi ta'kidlanadi. Fikrimizcha, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan taklif etilayotgan mexanizmlar O'zbekiston korxonalarini uchun muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa milliy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni jadallashtiradi.

OECD hisobotlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda davlat tomonidan yaratiladigan investitsiya rag'batlari muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [4]. Fikrimizcha, davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va qo'llab-quvvatlash dasturlari ekologik innovatsion loyihalarni amalga oshirishni sezilarli darajada tezlashtiradi.

UNEP tadqiqotlarida yashil moliyalashtirish ekologik va iqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida baholanadi [5]. Fikrimizcha, ushbu yondashuv ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarining kompleks bo'lishi zarurligini ko'rsatadi, ya'ni faqat bitta manbaga emas, balki turli manbalarga tayanish muhimdir.

Climate Bonds Initiative yashil obligatsiyalar bozorining jadal rivojlanayotganini qayd etadi va uni ekologik loyihalarni moliyalashtirishning samarali vositasi sifatida baholaydi [6]. Fikrimizcha, ushbu instrumentni O'zbekiston moliya bozoriga joriy etish orqali yirik ekologik va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati kengayadi.

A. Vahobov investitsiya siyosatini tahlil qilgan holda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishda investitsiya resurslaridan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. U davlat va xususiy sektor

hamkorligini kuchaytirish orqali yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mumkinligini asoslaydi [7]. Fikrimizcha, ushbu yondashuv yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida ayniqsa dolzarb bo'lib, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorning hamkorligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki bunday loyihalar yuqori investitsiya talab qilgani sababli, ularni faqat bitta manba hisobidan moliyalashtirish yetarli natija bermaydi.

S. G'ulomov innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy yutuqlardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi, deb ta'kidlaydi [8]. U innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Fikrimizcha, ushbu fikr ekologik innovatsion loyihalarga to'liq taalluqli bo'lib, ayniqsa yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy to'siqlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun innovatsion va ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan maxsus moliyaviy instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

B. Xodiyev iqtisodiy islohotlar sharoitida resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab beradi [9]. U iqtisodiy rivojlanish jarayonida ekologik omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Fikrimizcha, bu yondashuv yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy mohiyatini ifodalaydi, ya'ni iqtisodiy o'sish faqat ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan emas, balki resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash bilan ham belgilanadi. Bu esa ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda davlat

tomonidan yaratiladigan institutsional muhit, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investitsiya rag'batlari muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Yashil iqtisodiyot sharoitida investitsiya va innovatsiya jarayonlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichini ta'minlaydi. Ekologik innovatsion loyihalar nazariy jihatdan barqaror rivojlanish konsepsiyasi, innovatsion iqtisodiyot nazariyasi hamda investitsiya samaradorligi yondashuvlari asosida shakllanadi. Ushbu loyihalar orqali ishlab chiqarish jarayonida resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga erishiladi.

Investitsiya nazariyasiga ko'ra, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yuqori risk va uzoq muddatli qaytish davri bilan xarakterlanadi. Shu sababli bunday loyihalarni moliyalashtirishda an'anaviy moliyaviy manbalar bilan bir qatorda yangi investitsiya instrumentlaridan foydalanish zarur bo'ladi. Xususan, yashil investitsiyalar, innovatsion fondlar, venchur kapital, yashil obligatsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari muhim o'rin tutadi.

Nazariy jihatdan ushbu mexanizmlar ekologik innovatsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, investitsiya xavfini kamaytiradi va innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Ayniqsa, davlat tomonidan yaratilgan rag'batlantirish mexanizmlari – soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar –

ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tishda ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda investitsiya mexanizmlarining xilma-xilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda yashil obligatsiyalar, innovatsion fondlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlar keng qo'llanilmoqda. Bu esa ekologik texnologiyalarni tez joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Masalan, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya tajribasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan investitsiya dasturlari orqali korxonalar ekologik innovatsion loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu mamlakatlarda davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy rag'batlar va institutsional muhit yashil investitsiyalarni jalb qilishni sezilarli darajada oshirgan.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari joriy etilgan. Biroq ekologik

innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda hali ham muammolar mavjud bo'lib, ular asosan moliyaviy resurslarning yetishmasligi, investitsiya risklarining yuqoriligi va innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda investitsiya mexanizmlarining rivojlanganligi muhim omil hisoblanadi. Ushbu mexanizmlar orqali korxonalar uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati kengayadi, investitsiya xavfi kamayadi va innovatsion faoliyat faollashadi.

Shuningdek, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi infratuzilmaning rivojlanishiga va ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga olib keladi. Bu esa korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi va eksport salohiyatini oshiradi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali energiya tejamlorligi va ekologik xavfsizlik ta'minlanadi. Mazkur jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan davlat siyosati, institutsional muhit va moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligiga bog'liq. Shu bois ekologik innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda kompleks yondashuvni qo'llash zarur hisoblanadi.

1-jadval

**Ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining ta'siri [10]**

<i>Mexanizm</i>	<i>Mazmuni</i>	<i>Ta'siri</i>	<i>Natija</i>
<i>Yashil investitsiyalar</i>	<i>Ekologik loyihalarga yo'naltirilgan mablag'lar</i>	<i>Moliyalashtirish kengayadi</i>	<i>Loyiha soni ortadi</i>
<i>Innovatsion fondlar</i>	<i>Ilmiy va texnologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash</i>	<i>Innovatsiya rivojlanadi</i>	<i>Texnologik yangilanish</i>
<i>Davlat subsidiyalari</i>	<i>Xarajatlarni qisman qoplash</i>	<i>Xarajat kamayadi</i>	<i>Rentabellik oshadi</i>
<i>Yashil obligatsiyalar</i>	<i>Kapital bozor orqali mablag' jalb qilish</i>	<i>Yirik loyihalar moliyalashtiriladi</i>	<i>Investitsiya hajmi oshadi</i>
<i>Xalqaro moliya</i>	<i>Tashqi investitsiyalar jalb etish</i>	<i>Moliyaviy resurslar ko'payadi</i>	<i>Barqaror rivojlanish</i>

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida ekologik innovatsion loyihalarni

moliyalashtirish investitsiya mexanizmlarining samarali ishlashiga bevosita bog'liq. Ushbu mexanizmlar o'zaro uyg'unlashgan holda

qo'llanilganda iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va innovatsion rivojlanish bir vaqtning o'zida ta'minlanadi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligi ko'p jihatdan investitsiya oqimlarining dinamikasiga bog'liq. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, agar davlat tomonidan dastlabki rag'batlantirish mexanizmlari (subsidiyalar, soliq imtiyozlari) joriy etilsa, dastlab investitsiya hajmi sekin

o'sadi, keyinchalik esa xususiy sektor faollashuvi hisobiga tez sur'atlarda ortadi.

Shuningdek, ekologik innovatsion loyihalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular qisqa muddatda emas, balki o'rta va uzoq muddatda yuqori iqtisodiy samara beradi. Shu sababli investitsiya siyosatida uzoq muddatli strategik yondashuv muhim hisoblanadi. Ayniqsa, energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya loyihalari dastlab katta mablag' talab qilsa-da, keyinchalik xarajatlarni keskin kamaytiradi.


**2-jadval**

**Yashil investitsiyalar samaradorligining vaqt bo'yicha o'zgarishi [10]**

Bosqich	Vaqt (yil)	Investitsiya hajmi	Xarajat darajasi	Iqtisodiy samaradorlik	Izoh
<i>Boshlang'ich</i>	1-2 yil	O'rta	Yuqori	Past	Asosiy kapital qo'yilmalar amalga oshiriladi
<i>Moslashuv</i>	3-5 yil	Yuqori	O'rtacha	O'rtacha	Texnologiyalar joriy etiladi, xarajatlar kamayishni boshlaydi
<i>Rivojlanish</i>	5-10 yil	Barqaror	Past	Yuqori	Ishlab chiqarish samaradorligi oshadi
<i>Yetuklik</i>	10+ yil	Barqaror	Past	Juda yuqori	To'liq iqtisodiy va ekologik samaraga erishiladi

Mazkur jadvalda yashil investitsiyalar va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik ifodalangan. Rasmning boshlang'ich bosqichida investitsiya hajmi oshishi bilan xarajatlar yuqori bo'lib, iqtisodiy samaradorlik past darajada bo'ladi. Biroq vaqt o'tishi bilan innovatsion texnologiyalar joriy etilishi va infratuzilmaning rivojlanishi natijasida samaradorlik keskin oshadi.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda qisqa muddatli foydadan ko'ra uzoq muddatli natijalarni hisobga olish muhimdir. Aynan shu yondashuv yashil iqtisodiyotga o'tishda investitsiya siyosatini shakllantirishning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.



**1-rasm. O'zbekistonda yashil investitsiyalar va ekologik loyihalar ko'rsatkichlari (so'nggi yillar kesimida) [10]**

Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi an'anaviy investitsiya yondashuvlaridan tubdan farq qiladi. Bunday loyihalar, odatda, yuqori boshlang'ich xarajatlarni talab qiladi va ularning iqtisodiy samarasi darhol emas, balki vaqt o'tishi bilan namoyon bo'ladi. Shu sababli investitsiya jarayonida uzoq muddatli strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish va moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish ko'rsatkichlari yil sayin ijobiy o'sish dinamikasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, yashil investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 8,5 trln. so'mdan 2023-yilda 21,3 trln. so'mga yetib, qariyb 2,5 barobarga oshgan. Bu esa davlat tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosatining samaradorligini ifodalaydi.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari sonining ortib borishi ekologik innovatsion faoliyatning kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ekologik loyihalar ulushining 12 foizdan 24 foizga oshishi korxonalar faoliyatida ekologik omillarga e'tibor kuchayganidan dalolat beradi.

Xorijiy investitsiyalar ulushining oshib borishi esa xalqaro moliyaviy resurslarning faol jalb etilayotganini ko'rsatadi. Bu holat ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda investitsiya manbalarining diversifikatsiya qilinayotganini anglatadi.

Amaliy jihatdan qaraganda, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda bir nechta asosiy bosqichlarni ajratish mumkin. Dastlabki bosqichda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari muhim rol o'ynaydi, chunki xususiy investorlar yuqori risk sababli ushbu loyihalarga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Keyingi bosqichlarda esa loyihalarning iqtisodiy samaradorligi oshgani

sari xususiy sektorning ishtiroki kengayadi va investitsiya oqimlari barqarorlashadi.

Shuningdek, ekologik innovatsion loyihalarning samaradorligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan, balki ekologik natijalar bilan ham baholanadi. Masalan, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni ham qisqartiradi. Bu esa uzoq muddatda korxonalar uchun qo'shimcha iqtisodiy foyda keltiradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishda ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi hali to'liq shakllanmagan. Xususan, moliyaviy instrumentlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, investorlar uchun rag'batlarning cheklanganligi va innovatsion infratuzilmaning sust rivojlanganligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish ko'p bosqichli va murakkab jarayon bo'lib, u investitsiya siyosati, davlat qo'llab-quvvatlovi va innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu jarayonning samaradorligi moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi, institutsional muhit sifati va investorlar faolligiga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Bu esa yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida korxonalarning ekologik innovatsion loyihalarini moliyalashtirish investitsiya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu loyihalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va

ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik innovatsion loyihalar yuqori boshlang'ich xarajatlar va uzoq muddatli qaytish davri bilan tavsiflanib, ularni moliyalashtirishda maxsus yondashuvlarni talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekologik innovatsion loyihalarni samarali moliyalashtirish moliyaviy manbalar xilma-xilligini ta'minlash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish va xususiy investitsiyalarni jalb etish bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, yashil investitsiyalar, innovatsion fondlar va xalqaro moliyaviy resurslardan foydalanish ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, institutsional muhit va huquqiy bazaning rivojlanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchiidan, ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Xususan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar ajratish orqali korxonalarini yashil texnologiyalarni joriy etishga rag'batlantirish mumkin. Bu esa loyihalarning boshlang'ich bosqichdagi moliyaviy yukini kamaytiradi va investitsiya faolligini oshiradi.

Ikkinchiidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim

hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar, innovatsion fondlar va venchur kapital kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish orqali ekologik loyihalarga qo'shimcha investitsiyalar jalb etish mumkin. Bu esa korxonalar uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratadi.

Uchinchiidan, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish lozim. Ekologik innovatsion loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo'llash investitsiya risklarini kamaytiradi va loyihalarning samaradorligini oshiradi.

To'rtinchiidan, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish zarur. Texnoparklar, innovatsion markazlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarini qo'llab-quvvatlash orqali ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonini tezlashtirish mumkin.

Beshinchiidan, ekologik loyihalarni moliyalashtirishda institutsional va huquqiy bazani takomillashtirish muhimdir. Shaffoflikni ta'minlash, investorlar huquqlarini himoya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali investitsion muhitni yaxshilash mumkin.

Yakuniy jihatdan, yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi ekologik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirib, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va ekologik xavfsiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nordhaus W. D. A review of the Stern review on the economics of climate change //Journal of economic literature. – 2007. – T. 45. – №. 3. – C. 686-702.
2. Barbier E. B., Markandya A. A new blueprint for a green economy. – Routledge, 2013. Green Economy and Sustainable Development.
3. World Bank. Green Finance and Economic Development Reports. <https://www.worldbank.org>
4. OECD. Green Growth and Innovation Policy Framework. <https://www.oecd.org>
5. UNEP. Green Economy Report. <https://www.unep.org>
6. Climate Bonds Initiative. <https://www.climatebonds.net>
7. Vahobov, A. V. Investitsiya va moliyaviy siyosat. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019 – 112-118-betlar.
8. G'ulomov, S. S. Innovatsion iqtisodiyot. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020 – 85-92-betlar.
9. Xodiyev, B. Yu. Iqtisodiy islohotlar nazariyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018 – 134-140-betlar.
10. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va rasmiy internet manbalariga tayangan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan.